

**USE OF TYPES OF WORDS ACCORDING TO THE FORM OF SYMBOL AND
MEANING IN PRIMARY SCHOOL LANGUAGE CLASSES WITH INTERACTIVE
METHODS IN GROWING STUDENTS 'SPEECH**

Jonibekova Aziza, Khaitmamatova Saodat

1st year masters of Gulistan State University Department of Theory and Methods of Education

jonibekovaaziza@gmail.com

ANNOTATION

In this article, the form and meaning of words using interactive methods to increase students' speech in primary school mother tongue lessons, to express their opinions freely orally and in writing, to increase the attractiveness of speech. There is talk of teaching the appropriate use of species in relation to no.

Keywords: *native language lessons, interactive methods, figurative words, synonyms, contradictory words, paronyms, students, community, speech culture, personal development.*

INTRODUCTION

O'zbekiston davlat ta'lim siyosatida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, mahorati va bilimdonligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni darslarda qo'llay olishi, o'quvchiga puxta bilim berishi, erkin, ijodiy fikrlash ko'nikma, malakalarini hosil qila olishi zamon talablaridan biridir.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro tajribalarni va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega.

Inson kamolotida, jamiyat taraqqiyotida ona tilining o'rni beqiyos. Til – aloqa vositasi. Til insonlar o'rtasidagi muomala qilish, fikr-mulohazalarini bir-biriga yetkazish manbai. Til – ilm. Til – inson tarbiyasidagi vosita belgisi.

“Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir”, - degan edi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida.(2)

Ona tilimiz xalqimiz madaniyatini, ma'naviyatini, o'lmas merosini ko'rsatib beruvchi asosiy vositalardan hisoblanadi. Inson o'z fikr-mulohazasini til orqali namoyon etadi. Bugungi kunda dunyoda ellik milliondan ortiq kishi o'zbek tilida so'zlashadi. Ona tili – millatning ruhi, til – davlat timsoli, mulki, - deyidilar donishmandlar. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demakdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: “Ona tilimiz milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir”, - degan gaplari har bir ziyolining, fuqaroning hayotiy mezoni bo'lishi zarur.(2)

Insonning madaniyatligi, bilimligi, ma'naviyatligi uning notiqlik darajasiga ham bog'liq. Bo'lajak yetuk mutaxassislar, o'qituvchilar, ayniqsa, raxbarlar, barcha ziyolilar notiqlik sanatini puxta egallashlari talab etiladi. Chunki ular o'z bilim ko'nikmalarini, fikr-mulohazalarini nihoyatda oddiy, soda tarzda tushuntirib bera olish san'atiga ega bo'lishlari zarur. Ma'lumki, inson jamiyatda yashar ekan, u tevarak-atrofdagi odamlar bilan muloqot qiladi. Muloqot til yordamida, nutq vositasida amalga oshiriladi. Insondagi mavjud nutq apparati

yordamida tovushlar hosil bo'ladi. Tovushlar tizmasidan so'zlar, so'zlardan gaplar tuziladi. Gaplarda fikrlar mujassam bo'ladi. Gaplar sodda, tushunarli, mazmunli bo'lishi talab etiladi. Demak, inson nutqi orqali, o'z fikr-mulohazasini yaxshimi-yomonmi, qanday bo'lishidan qat'iy nazar bayon qiladi. Har bir inson ikki yoshidan boshlab to'liq o'z fikrini bayon qila olish imkoniyatiga ega bo'lar ekan, unda nutq rivojlanib, o'sib, so'z boyligi ko'payib boradi. (2)

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallash va nutq o'qitirish bilan o'quvchilarning fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi. Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishdan ko'zlangan maqsad yosh avlodni erkin fikrlay olish, tafakkur qilish faoliyatini kengaytirish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetikishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzda nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga o'qitiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar.

MAIN PART

Interfaol ta'lim jarayonida dars o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida amlga oshiriladi. Interaktiv ingliz so'zidan olingan bo'lib, "Interakt", ya'ni inter – bu "o'zaro", "akt" – harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini bildiradi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni kafolatlash, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi(subyekt-subyekt) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi – o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit, vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda birona ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan, bilgan fikr-mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayonida sodir bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabat shakllanadi.

Ona tili darsida namunalı dasturda ko'rsatilgan mavzularga asoslangan va dasturda tasdiqlangan mavzular o'tiladi. Darsda boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikr yuritishga, og'zaki va yozma nutqini o'stirishga, darsliklardan foydalanishga, ijodiy faollikni o'stirishga kata ahamiyat beriladi. O'quvchilarni hamkorlikda o'qitishga, ulardagi bilimning o'sishi, ya'ni abstract tafakkurini rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'limni shakllantirish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Har bir dars kichik ixtirodek bo'lishi, har bir bolada is'tedod uchqunini yoqishi kerak.
2. O'quvchini mustaqil ta'lim olishga dav'at etish o'qituvchining nazoratida bo'lib, erkin mushohada yuritishga erishish.
3. O'quvchilarning erkin ijod qilish imkoniyatlarini rivojlantirish
4. Mustaqil fikrlashni shakllantirish

5. O`quvchilarning izlanuvchanlik faoliyatini shakllantirish.
6. Ona tili va o`qish darslarida mustaqil ta`lim asosida ta`lim texnologiyalaridan foydalanish.
7. Interfaol metodlardan foydalanish
8. Hamkorlikda o`qitish tizimi asosida o`qitish
9. "Aqliy hujum", "Klaster", elektron o`quv adabiyotlaridan foydalanish.
10. O`quvchilarni tabaqalashtirish.
11. Kommunikativ va ijtimoiy bilimlarni rivojlantirish.
12. Zaruriy axborotni mustaqil ravishda olish, bilishni rivojlantirish
13. Bolani o`z natijalari va muvaffaqiyatlarini tahlil qilishga hamda taqqoslashga o`rgatish
14. Bola erkinligini cheklamasdan, unga o`qishga oid bo`lgan vazifalarni tanlash imkoniyatini yaratib berish

Yuqoridagilarga amal qilinsa, kutilgan natijaga erishish mumkin.(6)

Ona tili boshqa fanlarni o`qitish vositasi hamdir: janiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o`rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg`otishida ham alohida o`rin tutadi. Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o`qigan bola o`zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muomala madaniyatini egallaydi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining og`zaki nutqini o`stirishda so`zning ma`no turlaridan foydalanishning ham ahamiyati beqiyosdir. O`quvchilar sinfdan-sinfga ko`chib, yuqorilab borgan sayin ularning lug`atidagi so`zlari soni ham ortib boradi.

Boshlang`ich sinflarda so`z ustida ishlashda asosan, quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

1. So`zning to`g`ri, adabiy-orfoepik talaffuzi va o`qilishini o`rgatish.
2. So`z ma`nolarini tushuntirish.
3. O`quvchilar nutqiga yangi so`zlarni kiritib borish, ya`ni lug`atini boyitish.
4. So`zlarni uslubiy jihatdan to`g`ri qo`llashga o`rgatish.
5. Berilgan so`zni imlo jihatdan to`g`ri yozishga o`rgatish.

Bu jarayonda, mazmunli rasm asosida yoki predmetlarning o`zi yordamida har bir aytilayotgan nom **so`z** ekanligi tushuntiriladi, "so`z" tushunchasi shakllantiriladi. Bu o`rinda gapning so`zlardan tuzilishi aytib o`tiladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining nutqini o`stirish va boyitishda so`zning ma`no turlari, ya`ni ma`nodosh so`zlar, shakldosh so`zlar, qarama-qarshi ma`noli so`zlar, ko`p ma`noli so`zlar, ohangdosh so`zlardan foydalanish juda muhim ahamiyatga ega.

Ona tili darslarida o`quvchilar turli yozma ishlarni bajaradilar. Masalan, diktant, insho, bayon, kichik hajmli matn tuzadilar, aynan bir so`zni tanlab gap tuzadilar. Bu ishlar turli sinflar kesimida turlicha bajariladi ya`ni quyi sinfdan yuqori sinfga qarab onsondan murakkablashib boradi. O`quvchilar darslikdagi so`z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo`lishi mumkin. Bu so`z yangi paydo bo`lgan so`z bo`lmasa ham, o`quvchi uning ma`nosini bilmaydi, demak, o`quvchi uchun yangi so`z hisoblanadi. Masalan, 1-sinf "Ona tili" darsligida xabib (do`st), darparda (oyna o`rniga shaffof qog`oz yopishtiriladigan deraza parda), mag`rur (kekkeygan), kamol (har tomonlama yetuk, to`kis), xaroba (qarovsiz qolgan vayrona), qardosh (do`st, birodar, qarindosh-urug`), safdosh (harbiy xizmatda birga, tashkilotda birga), sarkarda (qo`mondon, lashkarboshi), zeb (bezak, ko`rk, husn), qasr (hashamatli saroy, ko`shk) kabi so`zlarga duch keladilar. Bunday so`zlarning ma`nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo`li bilan, qarama-qarshi ma`noli so`zlar bilan izoh berish yo`li

bilan, gap tuzish orqali ma`nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish yo`li bilan tushuntirish mumkin. Bunday ishlash o`quvchilarda so`z ma`nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi. O`quvchilar ko`p ma`noli so`zlarning bir ma`nosini tushunsa, boshqa ma`nosini bilmasliklari mumkin. Bolalar so`zlarning hamma ma`nolarini birdaniga o`zlashtirib olmaydilar. Ularning ma`nosini o`zlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1 – 2-sinflarda o`quvchilar ko`p ma`noli so`zlarning bir-ikki ma`nosi bilan tanishsa, 3 – 4-sinflarda yana boshqa ma`nolarini bilib oladi.(1)

O`quvchilar mustaqil matn yaratganlarida uning qanchalik mazmundor va jozibador bo`lishi matnda keltirilgan so`zlarning ma`nosiga bog`liq ekanligini o`qituvchi tushuntirishi zarur. Buning uchun o`quvchilarni so`zning ma`no turlari bilan kengroq va chuqurroq tanishtirilishi kerak. Masalan, ma`nodosh (sinonim) so`zlarni oladigan bo`lsak, sinonimlar bir umumiy ma`noni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq so`zlardir. Ma`nodosh so`lar bir ma`noni xilma-xil so`zlar orqali turli nozik ma`no qirralari bilan ifodalashda, so`z seyrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta`sirchanligini ta`minlashda katta ahamiyatga ega. 4-sinf ona tili darsligining 53-mashqida tilak, istak, tabrikلامoq, qutلامoq, minnatdor bo`lmoq, xursand bo`lmoq, tavallud kuni, tug`ilgan kun, yaxshi, yoqimli, bayram kuni, shodiyona kun ma`nodosh so`zlaridan qatnashtirib, “Tabriknoma” matnini yaratish vazifasi berilgan.(5) O`quvchilar o`zining yaqin insoniga “Tabriknoma” yozishda eng chiroyli so`zlardan foydalanib mazmundor, go`zal tabriknomani yaratadilar. Bu tabriknomani yozish orqali o`quvchilar o`zining bor mehrini ko`rsatishga, chiroyli dil izhori qilishga harakat qiladilar. “Tabriknoma”sini olgan, o`qigan yaqin insoni qanchalar qanchalar xursand bo`lishini, undan qanchalar minnatdor bo`lishini o`ylab ich-ichidan quvonadi va o`ziga bo`lgan ishonchi ham ortadi va yana shunday chiroyli ishlarni ko`proq qilishni xohlaydi. Bola yana shunga o`xshash chiroyli so`zlarni kashf qilishni istaydi. Birgina “Tabriknoma” yaratish orqali bolada ota-onaga hurmat, do`stga sadoqat, opa-singil, aka-ukalarini qadrlashga, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo`lish kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirish va mustahkamlashga erishish mumkin bo`ladi. Mahoratli pedagog bolaga faqatgina ta`im beribgina qolmay, balki har bir so`z doirasida bolaning tarbiyasidagi ijobiylikni oshirib va mustahkamlab boradi.

Ma`nodosh so`zlar bir umumiy ma`noni ifodalasa ham, lekin ularning ma`no darajasi, ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma`lum uslubga xoslanishi bilan farq qiladi. Masalan, shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, bo`kirmoq so`zlari so`zlash umumiy ma`nosi bilan bir xil bo`lsa ham, ular ovozning baland-pastligiga ko`ra farqlanadi. Shuningdek, ming`irlamoq, to`ng`illamoq, vaysamoq, javramoq so`zlari ham so`zlash umumiy ma`nosi orqali yuqoridagi so`zlar bilan birlashadi, lekin ulardan salbiy bahoga egaligi bilan farq qiladi. (3)

Sinonimlar adabiy tilni boyitish manbalaridan biridir. Garchi boshlang`ich sinflarda sinonim haqida nazariy ma`lumot berilmasa-da, ammo sinonimlar haqida gi tushuncha amaliy mashq yordamida shakllantiriladi. Sinonimlar bilan ishlash elementar tarzda 1-sinf dan boshlanadi: o`quvchilar berilgan so`zning sinonimini topishga, boshqacha qilib aytish mumkinligini tushuntirishga, 2-3-sinflarda esa berilgan so`zning ikki-uch sinonimini topib aytishga o`rgatiladi.

Boshlang`ich sinflarda ma`nodosh so`zlarga oid interfaol usullar yordamida quyidagicha mashqlar ishlatiladi:

1. Berilgan ma`nodosh so`zlarni guruhlash. Bunda bir so`z turkumiga oid ikki sinonimik qatordagi so`zlar ichiga bir-ikkita boshqa so`z kiritib beriladi. O`quvchilar sinonimlarni ikki guruhga ajratib aytadilar. Buning uchun so`zlar quyidagi kabi berilishi mumki: bahs, sovg`a, munozara, tuhfa, gunoh, gunoh, hadya, tortishuv, taqchil kabi

2. Berilgan soʻzga nisbatan sinonim tanlash. Oʻqituvchi ot soʻz turkumiga doir osmon, sifat soʻz turkumiga doir mazali, feʼl soʻz turkumiga doir koʻnikmoq soʻzlarini aytadi. Oʻquvchilar bu soʻzlarga sinonim tanlaydilar: osmon, koʻk, samo, falak; mazali, lazzatli, totli; koʻnikmoq, oʻrganmoq, odatlanmoq, odat qilmoq.
3. Tushurib qoldirilgan sinonim soʻzlarni oʻz oʻrniga qoʻyib, matnni koʻchirish. Masalan, Dalamizda salqin esdi; Ulugʻ Madhiyaning yangroq ohangini olib ketdi tungi shoʻx; keltirar mayin biro hang. Yana olib Ketar nariga. Saharlab turaman, qutlayman tongni, boʻynimga osilar subh

Bunda yozilishi kerak boʻlga sinonim soʻzlar roʻyxati tekshirish uchun beriladi. Masalan, shamol, yel, shabboda, sabo kabi.

4. Buning uchun soʻzlar qavs ichida beriladi, oʻquvchi gapning mazmuniga mosini tanlab gapni oʻqiydi: Daryo suvini (bahor, koʻklam) toshirar, odam qadrini (mehnat, ish) oshirar. Oltin (oʻt olov, alanga)da odam (ish, mehnat)da bilinadi. Birlashgan (yo, dushman)ni qaytarar.
5. Sinonim soʻzlar qatoridan foydalanib didaktik material tuzish va u bilan mashq ishlash. Buning uchun toʻrtta sinonimik qatordagi soʻzlar tanlanadi va 16 katakka aralash joylashtiriladi:

Goʻzal	Vatan	Inson	Bahor
Dangasa	Dilbar	Yurt	Tanbal
Mamlakat	Kishi	Yalqov	Husndor
Odam	Ishyoqmas	Sohibjamol	Diyor

CONCLUSION

Oʻqituvchi ushbu katakchalardagi bir soʻzni aytadi. Masalan, mamlakat. Oʻquvchilar shu soʻzga yaqin maʼnoli soʻz (sinonim)ni katakchlardan topib aytadilar: mamlakat, yurt, vatan, diyor.

Sinonim soʻzlar qatori bilan soʻz birikmasi tuzadilar: qudratli mamlakat, ozod yurt, bizning vatanimiz, goʻzal diyor va hokazo.

REFERENCES

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida Gʻulomova, Sharofat Yoʻldosheva, Sharofjon Sariyev "Ona tili oʻqitish metodikasi". T.: "Nosir", 2009.
2. Ravshanbek Mahmudov "Notiqlik sanʼati va nutq madaniyati". T.: "Mumtoz soʻz". 2021
3. N.Erkaboyeva "Oʻzbek tilidan maʼruzalar toʻplami". T.: "Sharq". 2015.
4. A.Nurmatov, A.Sobirov, N.Qosimova va boshqalar "Hozirgi oʻzbek adabit tili" akademik listey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T.: "Ilm ziyo". 2013.
5. R.Ikromova, X.Gʻulomova, Sh.Yoʻldosheva, D.Shodmonqulova "Ona tili" 4-sinf uchun darslik. T.: "Oʻqituvchi". 2020.
6. Oʻ.Roʻziboyeva. Boshlangʻich sinflarda mutaqlil taʼlim: / Ona tili darslari misolida/ Toshkent. Tafakkur qanoti, 2012.